

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish to‘g‘risida
kelishuvning
2-ILOVASI**

**Xorijiy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish, unga xizmat
ko‘rsatish va yopish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR:

1.1. Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

Pul mablag‘lari – xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari;

“Faktura.uz” axborot tizimi – bitimlar tuzish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, rasmiy va norasmiy yozishmalarni almashish maqsadida “Faktura.uz” elektron hujjat aylanishi axborot tizim orqali elektron hujjatlarni shakllantirish, qabul qilish, jo‘natish va yetkazib berish bo‘yicha jarayonlar yig‘indisini amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy-apparat vositalaridan tashkil topgan, Axborot vositachisining axborot tizimi;

Tartib - mazkur xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish, xizmat ko‘rsatish va yopish Tartibi. Ushbu Tartib Bank saytida joylashtirilgan

Hisobvaraqlar – Mijozning birinchi talabi bilan beriladigan yoki ko‘chiriladigan uning pul mablag‘lari hisobi yuritiladigan, Bank tomonidan Arizaga yoki Mijozga hisobvaraqlar ochish to‘g‘risidagi Arizaga asosan Mijozning nomiga ochiladigan xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar.

Sanksiyalar - davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning qarori bilan davlat, tashkilot yoki alohida jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan iqtisodiy yoki boshqa xususiyatdagi jamoat yoki bir tomonlama majburiy choralar.

Sanksiyalar ro‘yxati – BMT Xavfsizlik Kengashi, Yevropa Ittifoqi va Xorijiy aktivlarni nazorat qilish idorasi (OFAC, Office of Foreign Assets Control) – Bank faoliyatiga bevosita yoki bilvosita tahdid soluvchi sanksiyalarni qo‘llashi mumkin bo‘lgan AQSh Moliya vazirligining bo‘limi yoki boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar - tomonidan sanksiya qo‘yilgan davlat, tashkilot yoki jismoniy va yuridik shaxslar.

1.2. Ushbu Tartibda foydalaniladigan boshqa atama va ta‘riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Tartib Mijoz tomonidan o‘z qo‘li yoki ERI bilan imzolangan Arizaga asosan Taraflar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi) va Mijozga hisobvaraqlar ochish, unga keladigan pul mablag‘larini qabul qilish va kirim qilish, hisobvaraqlardan pul mablag‘larini ko‘chirib berish va to‘lab berish, kassa xizmatlari ko‘rsatish, birjadan tashqari valyuta bozoridagi operatsiyalar, shuningdek, amaldagi Qonunchilikda, Kelishuvda va ushbu Tartibda nazarda tutilgan tartibda hisobvaraqlar bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish (o‘tkazish) bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Bank Tariflari, Ariza, Ommaviy oferta va hisobvaraqlar ochish to‘g‘risida Ariza (hisobvaraqlar Davlat xizmatlari markazi orqali ochilgan bo‘lsa yoki “Faktura.uz” axborot tizimi orqali yuborilgan bo‘lsa) birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida Milliy valyutadagi bank hisobvaraqlari shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma”) orqali tuzilgan hisoblanadi.

III. TARAFLARNING MAJBURIYATI

3.1. Bankning majburiyatlari:

3.1.1. Mijozga kompleks hisob-kassa xizmati ko‘rsatish va uning topshirig‘iga asosan O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida va O‘z.R.MBning normativ hujjatlariga nazarda tutilgan xorijiy valyutadagi barcha hisob-kitob va kassa operatsiyalarini amalga oshirish, shu jumladan:

- Mijozning hisobvaraqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan valyuta operatsiyalarini o‘tkazish;

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan Mijozning unga tegishli bo‘lgan bir Hisobvaraqlardan o‘zining boshqa hisobvaraqlariga va boshqa shaxslarning hisobvaraqlariga pul ko‘chirish to‘g‘risidagi topshiriqlarini bajarish;

- hisob-kitob hujjatlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan to‘lov qilish;

- Mijozning hisobvarag'iga keladigan mablag'larni O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan kirim qilish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Mijozdan naqd xorijiy valyutani qabul qilish va naqd xorijiy valyutani unga berish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan Mijozning eksport-import va barter kontraktlarining monitoringini olib borish;

- Ushbu Tartib shartlariga asosan birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalar o'tkazish;

- Mijoz bilan tuzilgan alohida shartnomalarga asosan hisob-kassa xizmatiga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa xizmatlar ko'rsatish (kreditlash, faktoring, lizing, svop, akkreditiv va boshqa valyuta operatsiyalari);

3.1.2. 9-00 dan 16-00 gacha muayyan vaqtda Mijozga to'lovlarni qabul qilish va jo'natish bo'yicha xizmat ko'rsatish (dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlar bundan mustasno). To'lovlar va kassa operatsiyalari bilan bog'liq bo'lmagan xizmat ko'rsatish butun bank (operatsion) kuni davomida amalga oshiriladi.

3.1.3. O'z.R.qonunchiligiga asosan Mijozning topshirig'i bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish. Mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini o'chirish uning topshirig'iga asosan to'lov hujjatlari Bankka kelib tushgan kuning ertasidan kechiktirilmasdan amalga oshiriladi. Mijozning roziligisiz uning hisobvarag'idan pul mablag'larini o'chirish O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda amalga oshiriladi;

3.1.4. hisob-kitob hujjatlarini qabul qilishda barcha kerakli rekvizitlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish va mablag'larni maqsadi bo'yicha kirim qilish;

3.1.5. Pul tushumini O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kassa ishi qoidalariga asosan qabul qilish;

3.1.6. Mijozni hisob-kassa hujjatlari bilan ta'minlash: naqd xorijiy valyutani topshirishga e'lonlar va bankning boshqa blankalari, shuningdek, Mijozning talabi bilan uning ishonchli vakiliga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda hisobvaraqdan ko'chirmalar berish;

3.1.7. hisob-kitoblar, bank texnikasi, hujjat aylanigi qoidalari va valyutani tartibga solish haqidagi boshqa masalalar bo'yicha Mijozga maslahat berish;

3.1.8. Bankka ishonib topshirilgan mablag'larning butligini ta'minlash;

3.1.9. Mijozning buyurtmasiga asosan Mijozning maqsadi bo'yicha kelib tushmagan moliyaviy vositalarini qidirish;

3.1.10. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 2020-yil 31-avgustda 3281-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 29-avgustdagi 18/5-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga muvofiq O'zR valyuta birjasida xorijiy valyutani sotish va sotib olish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish.

3.2. Mijozning majburiyatlari:

3.2.1. Hisobvaraqq ochish va yuritish uchun kerakli bo'lgan barcha hujjatlarni Bankka taqdim qilish;

3.2.2. Bankning ish jadvaliga, tegishli hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim qilish tartibiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi/ O'z.R.MBning qarorlari talablarini bajarish;

3.2.3. Bankning kassa-hisob xizmatlari uchun mazkur Tartibda belgilangan qoidalarga asosan to'lov amalga oshirish;

3.2.4. Quyidagi muddatlardan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Hisobvarag'iga xato kirim qilingan pul mablag'lari haqida Bankka xabar berish:

- Hisobvarag'i bo'yicha ko'chirma olgan (yoki hisobvarag'ining holati to'g'risida ma'lumot olgan) kundan yoxud;

- Hisobvaraqqqa begona pul mablag'lari tushgandan so'ng undan pul mablag'larini o'chirish bo'yicha birinchi operatsiya amalga oshirilgandan so'ng.

3.2.5. xorijiy davlat subyektlari bilan tuzilgan shartnomalarga asosan amalga oshirilgan eksport-import va boshqa operatsiyalar to'g'risida hujjatlarni hamda ma'lumotlarni, shuningdek, zarurat bo'lganda, Bankka unga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kerakli ma'lumotlarni taqdim qilish;

3.2.6. faoliyatiga va operatsiyalariga taalluqli bo'lgan yolg'on ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim qilganlik uchun to'liq javobgar bo'lish.

3.2.7. xorijiy davlat subyektlari bilan tuzilgan shartnomalarga asosan amalga oshirilgan eksport-import va boshqa operatsiyalar to'g'risida hujjatlarni hamda ma'lumotlarni, shuningdek, zarurat bo'lganda, Bankka unga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish, shu jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliylashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan kerakli ma'lumotlarni taqdim qilish;

3.2.8. quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun bank hisob(lar)idan foydalanmaslik (shu jumladan Bank tomonidan xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq):

- Bank va/yoki Mijoz uchun zarar, boshqa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, shu jumladan vakolatli davlat va/yoki moliya tashkilotlari tomonidan mijozga (uning mablag'lariga) va/yoki Bankka nisbatan sanksiyalar qo'llanilishi, shu jumladan Mijozga nisbatan cheklovlar bilan bog'liq, amaldagi qonun hujjatlari va/yoki xorijiy davlatlarning qonun hujjatlari, xalqaro-huquqiy hujjatlar, sud qarorlari va boshqa vakolatli organlarning qarorlari bilan (uning mablag'lariga) belgilangan;

- agar pul mablag'larini oluvchi yoki manfaatlovchi sanksiyalar ro'yxatidagi shaxs yoki tomon bo'lsa;

- amaldagi qonunchilikka va "Kapitalbank" ATBning mahalliy hujjatlari talablariga zid bo'lsa;

3.2.9. tashqi savdo shartnomasi bo'yicha o'zining xorijiy hamkori yoki xorijiy hamkorning benefitsiar egasi sanksiyalar ro'yxati bilan bog'lanmaganligi va tranzaksiyalar va ta'minot kanallari sanksiya qo'llanilgan mamlakatlar va sanksiya ob'ektlarining geografik mintaqalari bilan bog'lanmaganligi uchun javobgar bo'ladi (shu jumladan moliyaviy jihatdan);

3.2.10. mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlar, operatsiyalar (shu jumladan transport ekspeditsiyasi, transportirovka qilish va charter (fraxt) shartnomalari bo'yicha operatsiyalar, agar ekspeditor, transportirovka qiluvchi va xizmatlarni fraxt qiluvchi, transit, tashish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatsa) bevosita yoki bilvosita sanksiyalangan mamlakatlar va ro'yxatlar bilan bog'liq emasligi uchun javobgar bo'ladi (shu jumladan moliyaviy).

3.3. Taraflar maxfiylikka rioya qilishlari va ikkinchi tarafning yozma roziligisiz ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.4. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

IV. TARAFLARNING HUQUQLARI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, O'z.R. MBning hujjatlarida/qarorlarida, "Kapitalbank" ATBning ichki hujjatlarida o'rnatilgan hisob-kitoblar tartibining buzilish holatlari aniqlanganda, shuningdek, Mijoz tomonidan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va o'z vaqtida taqdim qilish tartibi buzilganida, Bank operatsiya o'tkazishni to'xtatib turish bo'yicha choralar ko'radi, ya'ni O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lgan to'lovni o'tkazishni rad qiladi va uni o'tkazishni to'xtatib turadi;

4.1.2. Mijozning bo'sh pul mablag'laridan, uning butligini va Mijoz tomonidan o'z mablag'larini erkin tasarruf etilishini kafolatlagan holda resurs sifatida foydalanish;

4.1.3. soliq organining taqdimnomasini ijro qilish maqsadida valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasining valyuta birjasida byudjet oldidagi qarzdorlikni qoplash uchun yetarli bo'lgan hajmda sotish kunidagi kurs bo'yicha Mijozning roziligisiz sotadi va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan Xorijiy valyutadagi hisobvaraqlarida mablag'lari bo'lgan ho'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan byudjet oldidagi majburiyatlarini bajarish tartibiga asosan Mijozning milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga so'mdagi ekvivalentini ko'chirib beradi;

4.1.4. KBXKSh va Shartnomalar tuzishni rad etishi yoki bir tomonlama tartibda KBXKSh va Shartnomani bajarishni (to'liq yoki qisman) rad etishi, agar xorijiy davlat rezidenti bo'lgan yuridik shaxs ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortgan taqdirda, chet davlat rezidenti ekanligi va (yoki) xorijiy davlatga soliq to'lash majburiyatlari va/yoki chet el valyutasidagi hisobvaraqlardagi mablag'lar qoldig'ining kamayishi, bank tariflarida nazarda tutilgan chet el valyutasidagi talab qilib olish bo'yicha hisobvaraqlar (omonatlar) (muddatli va jamg'arma saqlash omonatdan tashqari).

4.1.5. Bir tomonlama tartibda:

4.1.5.1. agar Mijoz Shaxslar ro'yxatida bo'lsa – KBXSh - Kompleks bank xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma va/yoki Shartnomalar tuzishni rad etish yoki KBXSh va/yoki Shartnomani bajarishni (to'liq yoki qisman) rad etish (bekor qilish) yoki Mijozning tegishli operatsiyalarini to'xtatib qo'yish (Shaxslar ro'yxatidagi Mijozning hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha operatsiyalar bundan mustasno) va/yoki Mijoz hisobvarag'idagi pul mablag'larini bloklash (muzlatib qo'yish);

4.1.5.2. Mijoz Sanksiya qo'yilgan Shaxslar ro'yxatida bo'lsa va/yoki Mijozga nisbatan AQSh Moliya vazirligi bo'linmalari va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasining "50% qoida"si qo'llanilsa va/yoki anketada aks ettirilgan Mijoz to'g'risidagi ma'lumotlar Mijoz tomonidan haqiqatan amalga oshiriladigan operatsiyalariga mos kelmagan hollarda, Mijoz va/yoki uning operatsiyalari (kontragentlar (aksiyadorlar, ta'sischi, benefitsiarlar) ishtirokida), Mijoz va/yoki uning banklari xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, savdo va boshqa cheklovchi xarakterga ega choralar (sanksiyalar, shu jumladan ikkilamchi) ta'siri ostida qolganda Mijozning hisobvarag'iga tushgan mablag'larni qaytarish huquqi bilan KBXSh - Kompleks bank xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma va/yoki Shartnomalar tuzishni rad etish yoki KBXSh va/yoki Shartnomani bajarishni (to'liq yoki qisman) rad etish (bekor qilish) yoki Mijozning tegishli operatsiyalarini to'xtatib qo'yish va/yoki Mijoz hisobvarag'idagi pul mablag'larini bloklash (muzlatib qo'yish);

4.1.5.3. Mijozga pul mablag'larini jo'natuvchi Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa yoki Mijozga pul mablag'larini jo'natuvchi va/yoki Mijozga pul mablag'larini jo'natuvchiga nisbatan AQSh Moliya vazirligi bo'linmalari va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasining "50% qoida"si qo'llanilsa va/yoki Mijozga pul mablag'larini jo'natuvchining operatsiyalari (kontragentlar (aksiyadorlar,

ta'sisichilar, benefitsiarlar) ishtirokida), uning banklari va xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, savdo va boshqa cheklovchi xarakterga ega choralar (sanktsiyalar, shu jumladan ikkilamchi) ta'siri ostida bo'lgan hollarda to'lov zanjirida ishtirok etuvchi banklar Sanktsiyalar ro'yxatiga kiritilgan hollarda Mijozga pul mablag'larini jo'natuvchiga pul mablag'larini qaytarish huquqi bilan KBXSh - Kompleks bank xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma va/yoki Shartnomalar tuzishni rad etish yoki KBXSh va/yoki Shartnomani bajarishni (to'liq yoki qisman) rad etish (bekor qilish) yoki Mijozning tegishli operatsiyalarini to'xtatib qo'yish va/yoki Mijoz hisobvarag'idagi pul mablag'larini bloklash (muzlatib qo'yish).

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. Amaldagi qonunchilik, Kelishuv va ushbu Tartibda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, hisobvarag'idagi pul mablag'larini erkin tasarruf qilish;

4.2.2. Bankka xorijiy valyutadagi hisob kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun topshiriqlar berish;

4.2.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda naqd xorijiy valyuta olish;

4.2.4. Hisob-kitob, bank texnikasi, hujjat aylanishi qoidalari va valyutani tartibga solishga oid boshqa masalalar bo'yicha Bankdan ma'lumot olish.

4.3. Bank qonunchilikda, Kelishuvda va ushbu Tartibda nazarda tutilgan hollardan tashqari, Mijozning pul mablag'laridan o'z xoxishiga ko'ra foydalanish va ularni tassarruf qilish huquqiga cheklov o'rnatish huquqiga ega emas.

4.4. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

V. VOSITACHILIK HAQI VA UNI TO'LASH TARTIBI

5.1. Mijozning hisobvarag'ida vositachilik haqini to'lash uchun pul mablag'lari mavjud bo'lmaganida yoki yetarli bo'lmaganida, qarzdorlikning qoplanmagan qismi tegishli tartibda ijro qilinadigan to'lov talabnomasi qo'yish orqali Kartoteka-2 ga joylashtiriladi. Ushbu to'lov talabnomasi biror-bir ko'shimcha tasdiqlarsiz Mijoz tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

5.2. Hisobvaraqlarda mavjud pul mablag'laridan foydalanganlik uchun Bank Mijozga foizlar to'lamaydi.

VI. YAKUNIY QOIDALAR

6.1. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo'ladi.

6.2. Shartnoma Mijozning arizasi bo'yicha, Mijoz tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganida Bank talabi bilan chiqarilgan sudning qarori bo'yicha, shuningdek, amaldagi qonunchilikda va Kelishuvda ko'rsatilgan boshqa hollarda bekor qilingunga yoki to'xtatilgunga qadar amal qiladi.

6.2.1. Shartnoma Mijoz tomonidan unga bank xizmatlari ko'rsatilganligi bilan bog'liq barcha to'lovlar to'langanidan so'ng istalgan vaqtda tegishli tartibda bekor qilinishi mumkin.

6.3. Shartnoma to'xtatilganidan yoki bekor qilinganidan so'ng Bank Mijozning arizasiga asosan hisobvaraqli yopadi, 7 (yetti) ish kunidan kechiktirmasdan unga Hisobvaraqda mavjud pul mablag'larining qoldig'ini beradi yoki uning topshirig'iga asosan pul mablag'larining qoldig'ini boshqa hisobvaraqqa o'tkazadi. Shartnoma to'xtatilgan yoki bekor qilingan kundan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida Mijoz Bankka pul mablag'larini boshqa hisobvaraqqa o'tkazish haqida yozma ko'rsatma bermasa, Bank pul mablag'lari qoldig'ini Mijozning hisobvarag'idan 29842 hisobvaraqqa o'tkazadi.

6.4. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

6.5. Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

6.6. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.